



International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research

Journal home page:
<https://journal.jbnuu.uz/>



WAYS TO DEVELOP SPEAKING ACTIVITY OF VOCATIONAL SCHOOL STUDENTS

Sanobar Ashurova¹

Sayyora Mamanova²

Jizzakh branch of the National University of Uzbekistan, Institute of Pedagogical Innovations, Management of Vocational Education and Retraining of Pedagogical Staff

KEYWORDS

language, speech,
communication, speech
activity, logic of speech,
intonation

ABSTRACT

Teaching vocational school students using philological knowledge to improve their speech activity is one of the broad-scale tasks today. This, in turn, aims to improve the speech activity of students of vocational schools, to teach them to think independently, to fully express their opinions orally and in writing. The level of literacy of students, its role in social life is based on the knowledge and skills acquired in speech activity. In particular, the most important task is to improve the speech activity of students of vocational schools so that they can apply the knowledge they have acquired during their work and in practice. For this reason, this article talks about the methods, tasks, directions and results of developing the speech of students of vocational schools.

2181-3884/©2023 in Jizzakh branch of the National University of Uzbekistan.
DOI: 10.5281/zenodo.7875029

This is an open access article under the Attribution 4.0 International(CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

¹ Professor of the Institute of Pedagogical Innovations, Management of Vocational Education and Retraining of Pedagogical Staff, Uzbekistan, sanobarashurova@mail.com

² Trainee-researcher, Jizzakh branch of the National University of Uzbekistan, Jizzakh, Uzbekistan, sayyoramamanova94@mail.com

KASB-HUNAR MAKTABLARI O'QUVCHILARINING NUTQIY FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI

KALIT SO'ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА:

til, nutq, muloqat, nutqiy faoliyat, nutqning mantiqiyliqi, intonatsiya

ANNOTATSIYA/AHHOTACIYA

Kasb-hunar maktabi o'quvchilarini nutqiy faoliyatini oshirishda filologik bilimlardan foydalanib o'qitish bugungi kunda keng miqyosdagi vazifalardan hisoblanadi. Bu o'z navbatida kasb-hunar maktablari o'quvchilarining nutqiy faoliyatini oshirishda o'quvchilarni mustaqil fikrlashga, mulohazalarni og'zaki va yozma ravishda to'liq bayon etishga o'rgatishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan. O'quvchilarning savodxonlik darajasini, uning ijtimoiy hayotda tutgan o'rni nutqiy faoliyatida hosil qilingan bilim va malakalari asosiga quriladi. Xususan, kasb-hunar maktablari o'quvchilarining nutqiy faoliyatini oshirish ularning olgan bilimlarini ish-faoliyati davomida va amaliyotda qo'llay bilishi uchun eng muhim vazifa sanaladi. Shu sababdan ham ushbu maqolada, aynan, kasb-hunar maktablari o'quvchilarini nutqini o'stirish usullari, vazifalari, yo'nalishlari va uning natijalari to'g'risida so'z yuritiladi.

KIRISH

Jamiyatning buguni va kelajagi, uning madaniy ma'rifiy va ma'naviy salohiyati ta'lim tizimining va ishlab chiqarishning qay darajada rivojlanganligi bilan belgilanadi. Bugungi kunda kasb-hunar ta'limi o'quvchilarini bilimli, atroflicha fikrlay oladigan, dunyoqarashi keng, o'z ustida tinimsiz ishlaydigan, izlanuvchan, o'z faoliyatida ilg'or xorijiy tajribalar bilan birgalikda axborot texnologiyalarini samarali qo'llay oladigan ijodkor shaxsga, o'z navbatida nutqiy faoliyatini oshirish, o'z fikrini atrofdagilarga yetarlicha yetkaza olish qobiliyatiga ega bo'lmog'i kerak. Shu bilan birga, bugungi kunda kasb-hunar maktablari o'quvchilaridan ilg'or xorijiy tajribalarni o'z mehnat jarayoniga tatbiq eta olishi, innovatsion texnologiyalarining mohiyatidan xabardor bo'lishi hamda ularni hayotiy mehnat jarayonida samarali qo'llay olishi lozim.

DOLZARBLIGI

Kasb-hunar maktablari o'quvchilarining bugungi kunda o'z kasbining yetuk mutaxassisi bo'lib yetishib chiqishida, shaxslar bilan muloqatga kirisha olishida tilning ahamiyati beqiyosdir. Qolaversa davlatimiz tomonidan ham tilga e'tibor ortmoqda. Jumladan, Davlat tilini rivojlantirish haqida muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev shunday deydi: "Davlat tili masalasi milliy g'oyamizning asosiy tamoyillaridan biri bo'lishi zarur. Yosh avlod qalbiga ona tilimizni bolalikdan singdirish maqsadida ta'limning barcha bosqichlarida o'zbek tilini zamonaviy va innovatsion texnologiyalar asosida mukammal o'rgatishga alohida e'tibor qaratishimiz lozim. Toki, bolalarimiz o'zbek tilida ravon o'qiydigan, ravon yozadigan va teran fikrlaydigan insonlar bo'lib yetishsin"[1]. Qolaversa Prezidentimizning 2022-yil 20-dekabrda Oliy majlisga murojaatnomasida ham ona tilimizning nufuzini yanada mustahkamlash va rivojlantirishga alohida e'tibor berib o'tdilar:

“Milliy o‘zligimiz timsoli, ma’naviyatimiz asosi bo‘lgan ona tilimizga e’tibor yanada kuchaytiriladi. Albatta, chet tilini bilish zamon talabi, ammo ona tilini bilishni majbur qilish kerak” [2] deya ta’kidlagan edilar yurtboshimiz. Shu jihatdan kasb-hunar maktablarida ham o‘quv jarayonini zamonaviy talablar asosida qayta tashkil etish va tayyorlanayotgan o‘rta bo‘g‘in mutaxassislari malakasining raqobatbardosh bo‘lishiga erishish asosiy vazifalardan biri etib belgilandi.

Bugungi kunda davlat tili xususida bir necha qaror va farmonlar imzolandi. Jumladan, bunga o‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilishining o‘ttiz yilligi munosabati bilan 2019-yilning 21-oktabrida qabul qilingan “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” [3.1] gi Prezident farmonini misol qilsak bo‘ladi. Bu farmon asosida “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tuzilmasida xodimlarining umumiy cheklangan soni 9 ta shtat birligidan iborat Davlat tilini rivojlantirish departamenti tashkil etilgan. Shuningdek, farmonda Davlat tilini rivojlantirish departamentining asosiy vazifalari etib belgilangan ayrim bandlarida quyidagicha talab qo‘yilgan: “O‘zbek tilining yozma nutqi me’yor va qoidalarini ishlab chiqish bo‘yicha hamda lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosini to‘liq joriy etish borasidagi ishlarni jadallashtirish; ilmiy asoslangan yangi so‘z va atamalarni iste’molga kiritish, zamonaviy atamalarning o‘zbekona muqobillarini yaratish va bir xilda qo‘llanishini ta’minlash, geografik va boshqa toponimik obyektlarga qonun hujjatlariga muvofiq nom berilishi borasidagi faoliyatni monitoring qilish va muvofiqlashtirish; davlat tilini rivojlantirishga oid ilmiy-tadqiqot ishlarini qo‘llab-quvvatlash, bu sohada xalqaro hamkorlikni amalga oshirish.” [4.3.2]. Bu sanab o‘tilganlardan ko‘rinadiki, kasb-hunar maktablari o‘quvchilarining nutqiy faoliyatini oshirishda filalogik bilimlarning ona tili ta’limidan bilim berishda o‘zbek tiliga kirib kelayotgan yangi so‘z va atamalarni ham o‘rgatishga e’tibor qatratish kerak. Shu bilan bir qatorda farmonda “2020-yil 1-iyunga qadar bir nechta asosiy yo‘nalishlarni o‘z ichiga olgan 2020-2030-yillarda o‘zbek tilini rivojlantirish hamda til siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi va davlat dasturi loyihalarini kiritilishini yozib qo‘yilgan: “ta’lim muassasalarida davlat tilini o‘rgatish va uni bilish darajasini baholash tizimini yanada takomillashtirish, davlat tilining ilm-fan tili sifatidagi nufuzini oshirish; davlat tili sofligini saqlash, uni boyitib borish va aholining nutq madaniyatini oshirish; davlat tili qoidalarining buzilishi bilan bog‘liq holatlarni muntazam va har tomonlama o‘rganish, ularni bartaraf etishga doir chora-tadbirlarni ishlab chiqish” [5.3.3]. Mamlakatimizda 2020-2030-yillarda o‘zbek tilini rivojlantirish hamda til siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi va davlat dasturi loyihalarini amalga oshirish uchun qilinayotgan harakatlardan davlat tilini rivojlantirishga e’tibor kuchayib bormoqda.

METODLAR VA O‘RGANILISH DARAJASI

Shu bugungi kunga qadar Davlat tilimizni o‘qitish borasida bir qancha ishlar amalga oshirilgan bo‘lib bulardan, ona tili fanini o‘qitish muammolarini o‘rganish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borgan bir qancha olimlarimizning ishlarida ilmiy natijalarga olingan, erishilgan natijalardan ma’lumotlar berilgan. Jumladan, B.To‘xliyev [6], T. Almamatov [7],

G'.Hamroyev [8], S.X.Muhammedova [9] kabi tadqiqotchilarning metodik qo'llanmalarida aks etgan.

Shuningdek, Hamid Ne'matov, Abdulhamid Nurmonov, Nizomiddin Mahmudov, Tursunoy Ziyodova, Mahbuba Sobirova va boshqalar[10] ning ilmiy ishlari va metodik qo'llanmalarida yozma ishlardagi xatolar va ularni to'g'rilash uchun bir qator nazariy fikrlar aytilgan. Nomlari keltirilgan tadqiqotchilarning ishlarida o'quvchilarning diktant, bayon, insho kabi yozma ishlar asosida baholash mezonlariga e'tibor qaratilgan, lekin bu ilmiy izlanishlarda kasb-hunar maktabi o'quvchilarining nutqiy faoliyatini oshirish borasida amaliy ko'rsatmalar, orfografik xatolarni kuzatish va tahlil qilishga to'xtalinmagan. Shu sababdan ham maqolada nutqiy faoliyatni oshirish doirasida o'rganilmagan tomonlarini tadqiq qilishga harakat qilindi. Kasb-hunar maktablari o'quvchilarini o'zlashtirishini nazorat qilish usullari bilan tanishish, nutqiy faoliyatni oshirish bo'yicha yangi pedagogik texnologiyalarni hamda baholash mezonlarini o'rganish, har xil ta'limiy o'yinlar va testlarni yechish orqali olgan bilimlarini turli xil nazorat usullaridan foydalanib kasb-hunar maktabi o'quvchilarini kasbiy faoliyatda qo'llay bilishi, bugungi jadal rivojlanayotgan jamiyatimizda o'z o'rnini topa bilishi, bugungi raqobat muhitini ko'tara olishi va jamiyatimizdagi barcha javxalarida nutqiy faoliyatga kirishib keta olishi lozim bo'lib qolmoqda.

TADQIQOT NATIJALARI

Kasb-hunar maktablari o'quvchilarining nutqiy faoliyatini oshirishda o'quvchilarni mustaqil fikrlashga, mulohazalarni og'zaki va yozma ravishda to'liq bayon etishga o'rgatish, o'quvchilarning savodxonlik darajasi, uning ijtimoiy hayotda tutgan o'rni nutqiy faoliyatida hosil qilingan bilim va malakalari asosiga quriladi. Ma'lumki, har bir milliy til o'zida moddiy olamni aks ettirishdan tashqari ruhiy olamni, qayg'u-alamlari-yu shodliklarini ham o'z o'rnida, tugal ifodalaydi. Insonda har bir narsaga nisbatan o'z munosabatini bildirish imkoniyati bor va bu imkoniyat har gal tilning muayyan shakllari orqali yuzaga chiqariladi. Shunday shakllardan biri – nutqdir. Nutq fikrni bayon etish vositasi bo'libgina qolmay, uni shakllantirish quroli hamdir. Fikr nutqning psixologik asosi vazifasini bajaradi, uni o'stirish sharti esa fikrni boyitish hisoblanadi.

Aqliy faoliyat tizimini egallash asosidagina nutqni muvaffaqiyatli o'stirish mumkin. Shuning uchun o'quvchilar nutqini o'stirishda materialni tayyorlash, takomillashtirish, mavzuga tegishlisini tanlash, joylashtirish va mantiqiy fikrlashga yo'naltiradigan ish turlariga katta ahamiyat beriladi. Tafakkur til materiali yordamida nutqiy shakllantirilsa va bayon etilsagina muvaffaqiyatli o'sadi. Tushuncha so'zlar yoki so'z birikmalari bilan ifodalanadi, shunday ekan, u til vositasi bo'lgan so'zda muhim aloqa materialiga aylanadi. Kishi tushuncha ifodalaydigan so'z (so'z birikmasi)ni bilsagina, shu tushunchaga asoslangan holda tashqi nutqda fikrlash imkoniga ega bo'ladi. Nutqda fikr shakllantiriladi, shu bilan birga, fikr nutqni yaratadi. "Nutq tafakkur bilan chambarchas bog'langandir. Nutq bo'lmasa, tafakkur ham bo'lmaydi, til materiali bo'lmasa, fikrni ifodalab berib bo'lmaydi" [11]. Fikrni nutqiy shakllantirish uning aniq, tushunarli, sof, izchil, mantiqiy bo'lishini ta'minlaydi. Tilni egallash shu tilning fonetikasini, lug'at tarkibini,

grammatik qurilishini bilib olish, fikrni takomillashtirish uchun, tafakkurni o'zlashtirish uchun shart-sharoit hozirlaydi. Bilimlar, dalillar, har xil axborotlar tafakkurning ham, nutqning ham materialidir. Nutq tafakkur jarayonini o'rganishning muhim vositasi bo'lib xizmat qiladi. Nutqdan o'quvchi fikriy rivojining asosiy o'lchovlaridan biri sifatida foydalaniladi. O'quvchining barcha o'quv predmetlaridan materialni o'zlashtirishi va umumiy aqliy rivojlanishi haqida fikr yuritganda, u yoki bu mavzuni o'quvchi o'z nutqida (yozgan inshosida, axborotida, qayta hikoyalashda, savollarga bergan javobida) qanday bayon eta olishiga qaraladi. O'quvchilar nutqini o'zlashtirishda aniq belgilangan bir qator talablarga rioya qilishi bu kelajakda ular uchun samarali natijalar beradi va ko'zlagan maqsadlariga, yutuqlarga erishishi uchun turtki bo'lib xizmat qiladi. Bunda o'quvchilar quyidagi bir qancha talab va takliflarga e'tibor berishi lozim:

1. O'quvchilar nutqi mazmundor bo'lsin. Hikoya yoki insho o'quvchilar uchun yaxshi ma'lum bo'lgan dalillar, ularning kuzatishlari, hayotiy tajribalari, kitoblardan, rasmlardan, radioeshittirish va teleko'rsatuvdan olgan ma'lumotlari asosida tuzilsagina mazmunli bo'ladi. Bolalar bilmagan narsa, ko'rmagan voqea-hodisalar haqida yetarli tayyorgarliksiz so'zlashga yo'l qo'yilsa, nutq mazmunsiz chiqadi. Nutq o'zlashtirish metodikasi hikoya, insho uchun materialni puxta tayyorlashni, ya'ni material yig'ish, uni muhokama qilish, to'ldirish, asosiy mazmunni ajratish, zaruriy izchillikda joylashtirishni talab qiladi. Albatta, bunda o'quvchilarning yosh xususiyatlari va qiziqishlari ham hisobga olinadi.

2. Nutqda mantiqiylik bo'lsin: O'quvchilar nutqi mantiqan to'g'ri bo'lishi, fikr izchil, asosli bayon etilishi, asosiy o'rinlar tushirib qoldirilmasligi va o'rinsiz takrorga, mavzuga taalluqli bo'lmagan ortiqchalikka yo'l qo'yilmasligi talab etiladi. Nutqning mantiqiyliги narsa, voqea-hodisalarni yaxshi bilish bilan belgilanadi, mantiqiy xato esa material mazmunini aniq bilmaslik, mavzuni o'ylamasdan noqulay tanlash natijasida kelib chiqadi. Bu ikki talab nutqning mazmuni va qurilishiga taalluqlidir. Nutqni til jihatidan shakllantirishga oid talablar ham mavjud.

3. Nutq aniq bo'lsin: O'quvchi dalillar, kuzatishlar, taassurotlarini haqiqatga mos ravishda oddiy bayon etibgina qolmay, shu maqsadning eng yaxshi til vositalaridan (so'z, so'z birikmasi, gaplardan) foydalangan holda, maxsus tasvirlarni ifodalashga o'rganishi kerak.

4. Nutq til vositalariga boy bo'lsin. Mazmunni aniq ifodalash uchun o'quvchi nutqi til vositalariga boy bo'lishi, u har qanday vaziyatda ham kerakli sinonimlardan, xilma-xil tuzilgan gaplardan mazmunga eng mosini tanlab foydalana olish ko'nikmasiga ega bo'lishi zarur. Albatta, boshlang'ich sinf o'quvchilariga til boyligi yuzasidan yuqori talab qo'yib bo'lmaydi, ammo o'qituvchi o'quv ishlarida ularning so'z boyligini oshirib borishni har vaqt ko'zda tutishi va oshirib borishi kerak.

5. Nutq tushunarli bo'lsin. Og'zaki nutq eshituvchiga, yozma nutq esa uni o'quvchiga tushunarli bo'lishi zarur. So'zlovchi yoki yozuvchi nutqini eshituvchining yoki o'quvchining imkoniyatini, qiziqishini hisobga olgan holda tuzsa, uni hamma birdek sevib, alohida e'tibor

bilan hech qiyinchiliksiz anglab yetadi va tushunadi.

6. Nutq ifodali bo'lsin. Agar nutq ifodali, ya'ni jonli, ishontiradigan bo'lsa, eshituvchiga yoki o'quvchiga ta'sir etadi. Og'zaki nutq eshituvchiga intonatsiya orqali ta'sir etsa, og'zaki nutq ham, yozma nutq ham tinglovchi va o'quvchiga hikoyaning umumiy ruhi, dalillar, tanlangan so'zlar, ularning emotsionalligi, tuzilgan jumla, iboralar yordamida ta'sir etadi. Nutqning tushunarli va ifodali bo'lishi har qanday shevaga xos va ortiqcha so'zlardan xoli bo'lishini taqozo etadi.

7. Nutq to'g'ri bo'lsin. Kasb-hunar maktabi o'quvchilari uchun nutqning adabiy til me'yorlariga mos va to'g'ri bo'lishi alohida ahamiyatga ega. Yozma nutq grammatika, imlo va punktuatsiya jihatidan, og'zaki nutq esa orfoepik jihatdan to'g'ri tuzilishi talab etiladi. Nutqning to'g'ri bo'lishi uchun so'z tanlash va nutq logikasi katta ahamiyatga ega. Yuqorida sanab o'tilgan talablar o'zaro bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lib, ta'lim tizimida kompleks ravishda amalga oshiriladi. O'quvchilar nutqini o'stirishda o'qituvchining nutq madaniyati ham katta ahamiyatga ega. O'qituvchi barcha darslarda, o'quvchilar bilan bo'lgan muloqatlarda, mashg'ulotlarda faqat orfoepik talaffuz va adabiy til me'yorlariga rioya qilgan holda ifodali, ta'sirli so'zlashi, shuningdek, har doim o'quvchi daftariga, barcha hujjatlarga husnixat va imlo qoidalariga rioya qilgan holda yozishi zarur. Bu bilan u bolalarni ifodali so'zlashga, xatosiz, chiroyli yozishga o'rgatadi, tilga sezgirlikni uyg'otadi.

Bugungi ta'lim tizimida ta'lim maqsadlari, xususan, kasb-hunar ta'limi o'quvchilarni o'qitishning vazifalari va usullari o'zgardi. Mohiyatan jamiyatning barcha faoliyati markazida shaxs turadi, lingvistik shaxs tushunchasi kiritiladi. Shunday qilib, o'quvchilar tilni qanchalik bilishi bilan emas, balki u bilan nima qila olishi tavsiflanadi. Ta'limga zamonaviy yondashuv tilni o'rganishni inson ongi va tafakkuri, uning madaniy va ma'naviy hayoti bilan chambarchas bog'liq holda olib borishni taklif qiladi. Filologik ta'lim o'quvchining lingvistik shaxsini shakllantirish jihatida o'quvchini ma'lum bir til tashuvchisining doimiy prototipi, tilda va til orqali ifodalangan shaxs, til asosida asosiy xususiyatlarida qayta tiklangan shaxs sifatida ko'rib chiqadi. Filologiya ta'limi alohida madaniy-ijodiy salohiyatga ega bo'lib, ona tilida so'zlashuvchi kishining mentalitetini, milliy-madaniy o'ziga xosligini shakllantiradi, o'quvchilar va o'qituvchilarning shaxsini kamol toptirish, ma'naviy-axloqiy yuksalish uchun sharoit yaratadi. Filologik ta'lim orqali biz lingvistik shaxsni shakllantiramiz, o'quvchilarni badiiy so'zning go'zalligi va boyligi bilan tanishtiramiz, ularga o'z ona tilining barcha imkoniyatlarini va o'z-o'zini rivojlantirish va o'zini o'zi anglash uchun nutq san'atining imkoniyatlarini o'zlashtirishga yordam beramiz.

Shunday qilib, zamonaviy dunyoda filologiya jamiyat tomonidan talabning yuqori bosqichida, shuningdek maktabda filologik ta'limni modernizatsiya qilish jarayonini davom ettirish kerak. Shundagina biz o'z ona tilimizda aniq va ravon so'zlasha oladigan, eng muhimi, tushuntira oladigan, g'oyani hammaning idrokiga yetkaza oladigan o'quvchilarni shakllantira olishimiz mumkin bo'ladi. Kasb-hunar maktablari o'quvchilarining nutqiy faoliyatini oshirishda o'tiladigan mavzular, nazariy ma'lumotlar bo'yicha o'quvchilar egallagan bilimlarini nazorat qilish va baholash tizimi takomillashtiriladi. O'quvchilar

bilimini oshirishda quyidagi ishlar amalga oshiriladi: Ta'lim sifatini nazorat qilish usullari bilan tanish hamda o'quv-me'yoriy hujjatlar, mezonlar va ularni boshqarish bo'yicha ma'lumotlar atroflicha tahlil qilinadi.

Kasb-hunar maktabi o'quvchilarning filalogik bilimlarni qay darajada egalaganligi natijalarini nazorat qilishning individual, guruh va differensial, yoki bajarilishiga bog'liq - og'zaki, yozma usullarda ajratib tahlil qilinadi. Bundan tashqari filalogik bilimlar bo'yicha o'quvchilarni yozma ishlar orqali bilimini baholash mezonlariga oid tavsiyalar ham mavjud.

XULOSALAR

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, inson hayotida ta'lim-tarbiyaning, xususan, filalogik bilimlarning o'rni beqiyosdir. Chunki yoshlar mamlakatning kelajakka, saodatga bag'ishlovchi yorug' yulduzidir. Agar bolaga vaqtida yaxshi tarbiya berilmasa, xuddi yaxshi ishlov berilmagan yerdan mo'l hosil unmagandek, ko'zlangan maqsadga erishib bo'lmaydi. Ma'rifatparvar alloma Abdullo Avloniy bu haqida: "Har bir millatning saodati, davlatlarning tinch va rohati yoshlarning yaxshi tarbiyasiga bog'liqdir", - deb bekorga aytmagan edi. Shuning uchun ham ona tili mashg'ulotlarida hayotning iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, madaniy va milliy ma'naviy tarbiya berish sohalariga ta'siri masalalariga katta e'tibor qaratish zarur. Kasb-hunar maftablari o'quvchilarni nutqiy faoliyatini oshirishda filalogik bilimlarning o'rni beqiyosdir, Chunki ona tilining boshqa fanlarga nisbatan har bir darsda milliy ma'naviy bilim, malaka va ko'nikmalar hosil qilish, har qanday nazariy materiallar o'tilgach, mustahkamlash uchun berilgan amaliy topshiriqning mazmuni biror milliy qadriyatlarimiz, ajdodlarimiz qoldirgan milliy merosimiz va tarbiyaning eng nozik masalalarini o'quvchi-yoshlar ongiga yetkazish va singdirishda filalogik bilimlarning imkoniyati katta hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Prezident Shavkat Mirziyoyevning o'zbek tiliga davlat tili maqomi berilganining o'ttiz yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi 21.10.2019-yil. (President Shavkat Mirziyoyev's speech at the ceremony dedicated to the thirtieth anniversary of the granting of the state language status to the Uzbek language on October 21, 2019.)

2. Prezident Shavkat Mirziyoyevning Oliy majlisga murojaatnomasidagi nutqi 20.12.2022-yil. (President Shavkat Mirziyoyev's speech in the address to the Supreme Assembly on 12.20.2022.)

3. 3.1. "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" Toshkent sh., 2019-yil 21-oktabr, PF-5850-son (On measures to fundamentally increase the prestige and position of the Uzbek language as a state language" Tashkent city, October 21, 2019, No. PF-5850)

4. 3.2. "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" Toshkent sh., 2019-yil 21-oktabr, PF-5850-son (On measures to fundamentally increase the prestige and position of the Uzbek language as a state language" Tashkent city, October 21, 2019, No. PF-5850)

5. 3.3. “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” Toshkent sh., 2019-yil 21-oktabr, PF-5850-son(On measures to fundamentally increase the prestige and position of the Uzbek language as a state language" Tashkent city, October 21, 2019, No. PF-5850)

6. B.To‘xliyev, M.Shamsiyeva, T.Ziyodova. O‘zbek tili o‘qitish metodikasi. O‘quv qo‘llanma. O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti, T.: 2006. 192 b(B. Tokhliyev, M. Shamsiyeva, T. Ziyadova. Uzbek language teaching methodology. Study guide. Publishing House of the Literary Fund of the Writers' Union of Uzbekistan, T.:2006.192 b)

7. Almatov T. “O‘zbek tilini o‘qitishda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish” (metodik qo‘llanma). /T.Almatov va boshqalar. – T.: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2013. – 136 b.(Almatov T. "Using innovative pedagogical technologies in teaching the Uzbek language" (methodical manual). / T. Almatov and others. - T.: Publishing House of the National Library of Uzbekistan named after Alisher Navoi,2013.-136p)

8. Hamroyev G‘. “Ona tili o‘qitishning samarali usullari” (Ona tili o‘qituvchilari uchun metodik qo‘llanma). Toshkent: “Bayoz” 2018. 192 bet.(Hamroyev G'. "Effective methods of mother tongue teaching" (Methodical guide for mother tongue teachers). Tashkent: "Bayoz" 2018. 192 pages.)

9. O‘zbek tili va adabiyoti ta’limida zamonaviy axborot texnologiyalari [Matn]/ O‘quv qo‘llanma, S.X.Muhammedova, M.D.Abdullayeva, Sh.Sh.Yuldasheva Y.B.Eshmatova, – T.: “Excellent Poligraphy”, 2020. – 264 b.(Modern information technologies in the education of Uzbek language and literature [Text]/ Study guide, S.Kh.Muhammedova, M.D.Abdullayeva, Sh.Sh.Yuldasheva Y.B.Eshmatova, -T.: "Excellent Poligraphy", 2020. - 264 p.)

10. To‘raxojayeva M. “Darsda savodxonlik daqiqasi”. //Til va adabiyot ta’limi. 2015 y. 11 -son, 3-6-bet; Tolipova R. “Ona tilini o‘qitish muammolari”. //Til va adabiyot ta’limi. 2014 y. 1-son, 3-7-bet; Xusanboyeva Q. “Adabiy ta’limda insholarning o‘rni”. //Til va adabiyot ta’limi. 2015 y. 2-son, 3-7-bet; Bulekbayeva Ch. “Yangi usulda insho yozdirish tajribasidan”. //Til va adabiyot ta’limi. 2016 y. 2 -son, 3-7-bet, 7-son, 7-9-bet.

11. Ivanov P. I. Umumiy psixologiya. — T.: „O‘qituvchi“, 1967. 306-bet.(Ivanov P. I. General psychology. — T.: "Teacher", 1967. p. 306.)